

## **TARIX FANLARIDA INFORMATSION TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL METODLARNING QO'LLANILISHI**

Kutlimurodova Anajon Abdullayevna

Xorazm viloyati Urganch tumani 33 sonli matabning tarix fani o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

Tarix fanlarida foydalilaniladigan metodlar orqali ijodiy yondashuv, fikrlash, tasavvurni kengaytirishga erishish. Ushbu metodlarni informatsion texnologiyalar bilan birlgilikda qo'llash samaradorligi. T.A.R.I.X usuli va videoroliklarning afzalliliklari.

**Kalit so'zlar:** tasavvurning kengayishi, ijodiy yondashuv, nutqiy rivojlanish, interaktiv metodlar, tarixiy voqealar yoritilgan videoroliklar, test savollari, T.A.R.I.X usuli, ta'limdagi samaradorlik

### **KIRISH**

Bugungi jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan dunyoda asosiy e'tibor inson tafakkuri va ijodi mahsuligiga qaratilgan. Shunday ekan, o'z qarashlariga ega, mustaqil fikrlay oladigan, fikrlarini ijodiy, erkin bayon qila oladigan yoshlarni tarbiyalash dunyo ta'lim tizimidagi asosiy vazifaga aylangan. Ushbu vazifa yuzasidan har bir davlat o'z oldiga muhim maqsadlar qo'ygan holda harakat qilmoqda.

### **ASOSIY QISM**

Bunda asosiy vazifa o'qituvchining zimmasiga tushmoqda. Xususan, O'zbekiston ta'lim tizimida ham bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'quvchini har tomonlama ijodiy yondashadigan, mustaqil fikrlash qobiliyatini, nutqini ta'sirchan qiladigan metodlardan foydalananish hamda ularni ommalashtirish ta'lim sistemasining asosiy maqsadiga aylanib ulgirdi. Xo'sh, qanday qilib o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirish, ijodiy ishlashga o'rgatish mumkin? Hammamizga ma'lumki, bu ishni amalga oshirish uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi ijodiy ishlaydigan, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va ijodiy ishlashga o'rgatishning uslub va usullarini egallagan bo'lishi zarur. Keyingi yillarda mamlakatimizda uzlucksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlarning

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities  
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

**Date:** 1<sup>st</sup> January, 2023

**ISSN:** 2835-3196

**Website:** econferenceseries.com

asosini jahon ta'lifi standartlariga javob bera oladigan ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida kam jismoniy kuch sarflab, yuqori samaradorlikka erishish yo'lida amaliy faoliyat olib borilmoqda. Hozirgi vaqtida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o'quvchilarning ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Bu ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarda muhim jihat hisoblanadi<sup>1</sup>. Ana shu ishni amalgalashish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi. Dars samaradorligining muhim shartlaridan biri bu -o'qituvchi va o'quvchilarning haqiqatni birgalikda izlashi va o'quvchilarning butun dars jarayonida faol ishtirok etishidir. Tarix fanlarida obrazli tasavvur qilish orqali o'quvchining ichki dunyosi, tasavvur doirasi kengayadi hamda voqeani bayon qilish orqali nutqiy savodxonligi oshib boradi. Albatta, bu o'rinda o'qituvchiga yangi pedagogik texnologiyalar yordamga keladi. Sababi bir xil an'anaviy usullardan doimiy foydalanish o'quvchini fanga nisbatan qiziqishini so'ndiradi, darsni zerikarli bo'lishi to'g'risida oldindan xulosasi shakllanib qoladi. Hozirgi zamon har bir fan o'qituvchisi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o'rni va roliga har tamonlama qarash vazifasini yuklaydi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim-tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o'zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi an'anaviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilishi hamda ijodkor bo'lmog'i lozim. Maktab dasturidagi tarix fanlari orqali o'quvchi kishilik jamiyati bosib o'tgan yo'lni, ularning chet el bosqinchilariga qarshi, o'z ozodligi va baxt-saodati, porloq kelajagi uchun olib borgan kurashlari haqidagi asosiy ma'lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shu bilan birga tarix darslari o'quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashga yordamlashadi, har bir davrga xos vaziyatlar ustidan tahliliy yondashuvini shakllantiradi. Bizga ma'lumki tarix-juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko'rsatuvchi „Ko'zgu” desak bo'ladi va bu ko'zguga qarab har qanday inson, jamiyat, xalq o'z kelajagini belgilab olishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashi onson kechgani yo'q. Shuning uchun tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilar bugungi kunning qadriga yetishini, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikni, o'tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib olishini o'rgatish lozimdir.

<sup>1</sup> Fan dasturlari. <http://shuhratbek.uz/category/dts-va-oquv-dasturlari/>

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities  
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

**Date:** 1<sup>st</sup> January, 2023

**ISSN:** 2835-3196

**Website:** econferenceseries.com

Qolaversa maktabda tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarda o'zлari mustaqil va ijodiy fiklashedi rivojlantirishga, miliy ong va tafakkurni o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim .Ta'lif-tarbiya jarayonida mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun bugungi kunning pedagog hodimlari har bir darsda qiziqarli, samarali bo'lgan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish kerak.

Bizga ma'lumki, tarix fanining asosini ma'lumotlar tashkil etadi. Ularni to'liq eslab qolishi o'quvchilar uchun bir oz qiyinchilik tug'dirishi mumkin (ayrim past o'zlashtiruvchi o'quvchilar). Bu kabi ma'lumotlarni o'quvchilar xotirasida bir umrga esda qolishi, turli xil sahnali ko'rinishlar, qiziqarli o'yinli usullar, krossvordlar, guruhlar bilan ishlash, baxs-munozaralar olib borishiga bog'liq. Bunda "T.A.R.I.X"<sup>2</sup> metodini samarasini e'tiborlidir. T-test savollar, A-anagrammalar, R-raqamlardagi voqealar, I-ikki tarixiy voqelikni taqqoslash, solishtirish, X-xulosa qismlariga bo'linadi. Ushbu usul orqali bir darsda erishish mumkin bo'lgan ta'limiylar va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishish mumkin. Taklif etilayotgan "Mavzuga zamin", "T.A.R.I.X." o'yinli usullar tarix darslarni qiziqarli va samarali o'tishiga yordam beradi. Ushbu usullarning yana bir afzallik tomoni shundaki, bir vaqtning o'zida informatsion texnologiyalarni ham qo'llash mumkin. Usullarni qo'llash jarayonida voqeliklarni turli videoroliklar orqali ko'rsatish, o'quvchilar diqqatini ekranga qaratish orqali bir joyga jalg qilishga erishiladi va ayni shu paytda xulosada aqliy hujum, test savollari orqali esa mavzuni mustahkamlashga doir savollar bilan murojaat qilinadi.

## XULOSA

Informatsion texnologiyalarga bo'lgan qiziqish har bir o'quvchi bilan muloqotga kirishishning eng samarali usuli bo'lganligi uchun bu usulni har bir sinflarda qo'llash imkoniy mavjud. E'tiborli jihat shundaki, voqealar va test savollari tanlanayotganda o'tilayotgan mavzu ko'lami va sinfdagi o'quvchilarning bilim darajasi inobatga olinadi. Shu jihatlariga ahamiyat berilsa, ushbu metodlar barcha mavzular uchun qulay hamda o'zlashtirishni osonlashtiradi.

<sup>2</sup> Tarix darslarida metodlar. <http://shuhratbek.uz/tarix-darslarida-qiziqarli-o'yinli-usullardan-foydalanish/>



**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities  
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

**Date:** 1<sup>st</sup> January, 2023

**ISSN:** 2835-3196

**Website:** econferenceseries.com

**ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. Fan dasturlari. <http://shuhratbek.uz/category/dts-va-oquiv-dasturlari/>
2. Tarix darslarida metodlar. <http://shuhratbek.uz/tarix-darslarida-qiziqarli-oyinliusullardan-foydalanish/>



**E-Conference Series**

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings